

“E-XAT” himoyalangan elektron pochta tizimi xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha

8747-2023/EXAT-SON SHARTNOMA

Toshkent sh.

24 Yanvar 2023 y.

Bundan keyin “Operator” deb ataluvchi “UNICON-SOFT” MCHJ nomidan ish olib boruvchi, Ustav asosida faoliyat ko‘rsatuvchi direktor **XABIBULLAYEV SHERZOD XAYRULLA O‘G‘LI**, bir tomondan va **Buyruq** asosida faoliyat ko‘rsatuvchi, bundan keyin “Buyurtmachi” deb ataluvchi **SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI** nomidan ish olib boruvchi **YUNUSOV XUDAYNAZAR BEKNAZAROVICH** ikkinchi tomondan, birlgilikda Tomonlar deb ataluvchilar, ushbu shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

ATAMALAR VA TA’RIFLAR

“E-XAT” himoyalangan elektron pochta tizimi, (bundan keyin – “E-XAT” HEPT) – Xabarlarni shifrlash va elektron raqamli imzo bilan imzolash yordamida bir elektron pochta qutisidan boshqasiga yuborish yoki qabul qilish imkonini beruvchi dasturiy-texnik vositalar kompleksi.

Elektron raqamli imzo (bundan keyin – ERI) – elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini ERI yopiq kalitidan foydalangan holda maxsusus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda ERI ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va ERI yopiq kalitining egasini identifikasiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;

“E-XAT” HEPT Foydalanuvchisi – avtomatlashtirilgan ish joyidan foydalangan holda elektron ma‘lumotlar almashinuvini tashkillashtirish bo‘yicha o‘z vazifalari doirasida harakatlarni amalga oshiradigan Buyurtmachining vakolatli xodimi.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Ushbu Shartnoma bo‘yicha Ijrochi Buyurtmachining **1 nafar** Foydalanuvchisiga “E-XAT” HEPT xizmatlari (bundan keyin – “Xizmatlar”)ni ko‘rsatadi, Buyurtmachi esa ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq ko‘rsatilgan Xizmatlar uchun haq to‘laydi va undan foydalanadi.

1.2. Buyurtmachining **1 nafar** Foydalanuvchisini “E-XAT” HEPTga ro‘yxatga olish va ulash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ERI yopiq va ochiq kalitini generatsiya qilish;
- ERI kaliti sertifikatini berish;
- o‘qitish va foydalanuvchi yo‘riqnomalarini taqdim etish.

1.3. Buyurtmachi va Ijrochi ushbu Shartnomada belgilangan qoidalar va talablarga rioya qilish majburiyatini oladilar.

2. SHARTNOMA NARXI VA HISOB-KITOBLARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

2.1. 1 (bir) **nafar** Foydalanuvchi uchun bir yillik abonent to‘lovi QQSSiz **493,950.00** (to‘rt yuz to‘qson uch ming to‘qqiz yuz ellik) so‘mni tashkil qiladi.

2.2. Shartnomaning 1.1.-bandida keltitrilgan Xizmatlar uchun abonent to‘lovining umumiylar narxi QQSSiz **493,950** (to‘rt yuz to‘qson uch ming to‘qqiz yuz ellik) so‘mni tashkil qiladi.

2.2. Buyurtmachi ushbu shartnoma kuchga kirgan paytdan boshlab 5 (besh) bank ish kuni ichida Ijrochining hisob raqamiga shartnoma umumiylar narxining 30 foizi miqdorida oldindan to‘lovnini amalga oshiradi.

2.2.1. Buyurtmachi shartnoma narxining 70 foizi miqdorida qolgan to‘lovnini Ijrochi tomonidan taqdim etilgan Hisobvaraqturaga asosan, bajarilgan ishlardan qabul qilingan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni ichida amalga oshiradi. Bunda Buyurtmachi oldindan to‘langan bo‘nak summasini chegirgan holda, Hisobvaraqturaga summasining 70 foiziga teng mablag‘ni Ijrochining hisob raqamiga o‘tkazib beradi.

2.3. Ijrochi Buyurtmachiga ERI orqali tasdiqlanadigan, ko‘rsatilgan Xizmatlar uchun elektron Hisobvaraqturani Buyurtmachining shaxsiy kabinetiga yuboradi.

Buyurtmachi Ijrochi tomonidan yuborilgan Hisobvaraqturani 10 (o‘n) ish kuni ichida qabul qiladi. Agar Buyurtmachi tomonidan Hisobvaraqturaga o‘z vaqtida qabul qilinmagan va 10 (o‘n) ish kuni ichida uni qabul qilishni asoslangan rad javobi berilmagan bo‘lsa, u holda hisob-varaq aktura O‘zbekiston Respublikasida

amal qilayotgan qonun xujjaligiga asosan qabul qilingan va tomonlar tarafidan tasdiqlangan, xizmatlar esa ko'rsatilgan hisoblanadi.

2.4. Ushbu shartnoma bekor qilingan hollarda qayta hisob-kitoblar va to'lovlardan masalalari tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoki Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida belgilangan tartibda hal qilinadi.

3.TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

3.1. Buyurtmachining huquqlari:

3.1.1. Taqdim etilayotgan xizmatlardan foydalanish bilan bog'liq savollar tug'ilganda maslahat va texnik yordamdan foydalanish.

3.1.2. "E-XAT" HEPTda nosozliklar yoki sifatsiz xizmatlar ko'rsatilishi to'g'risida Buyurtmachini o'z vaqtida xabardor qilish, shuningdek Buyurtmachidan ularni bartaraf etishni talab qilish.

3.1.3. ERI kalitlari sertifikatlarining amal qilish muddati tugashidan kamida ikki hafta oldin ERI kaliti sertifikatlarini yangilash yoki qayta rasmiylashtirish to'g'risida so'rov yuborish.

"E-XAT" HEPT foydalanuvchilariga berilgan ERI kaliti sertifikatlarini to'xtatib turish, yangilash yoki bekor qilish uchun Ijrochiga murojaat qilish.

3.2. Buyurtmachining majburiyatları:

3.2.1. Ijrochi "E-XAT" HEPTga ro'yxatdan o'tish va ulash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargan kundan boshlab 10 kalendar kuni ichida Ijrochiga ushbu xizmat uchun to'lov amalga oshirilganligini va shartnoma bajarilganligini tasdiqlovchi barcha zarur hujjalarni taqdim etish. Agar ushbu shart bajarilmasa, "E-XAT" HEPT ishi tegishli hujjalarni taqdim etilgunga qadar to'xtatiladi. Agar 1 oy ichida tegishli hujjalarni taqdim etilmasa, ushbu shartnoma avtomatik ravishda bir tomonlama tartibda bekor qilinadi, to'langan to'lov Ijrochining daromadiga o'tkaziladi.

3.2.2. Foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish va ERI kaliti sertifikatini berish yoki yangilash uchun zarur bo'lgan ariza berish va boshqa hujjalarni taqdim etish.

3.2.3. ERI kaliti sertifikatini berish va yangilash uchun taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlash.

3.2.4. Ijrochini ERI kalitiga kirish rejimining buzilishi yoki buzilishi mumkinligi (kalitga ishonch yo'qolishi) to'g'risida darhol xabardor qilish va ERI kaliti sertifikatining amal qilishini to'xtatib turishni yoki uni bekor qilishni talab qilish.

3.2.5. Ijrochini "E-XAT" HEPT foydalanuvchisining ERI kaliti sertifikatiga kiritilgan ma'lumotlarning o'zgarishi, shu jumladan Buyurtmachining qayta tashkil etilishi yoki tugatilganligi to'g'risida xabardor qilish va ilgari berilgan ERI kaliti sertifikatini qayta rasmiylashtirishni talab qilish.

3.2.6. Buyurtmachi "E-XAT" HEPTdan reklama ma'lumotlari, spam, zararli dasturlarni yuborish uchun foydalanishga haqli emas.

3.2.7. Buyurtmachi raxbari "E-XAT" HEPTdan foydalanish uchun shaxsan mas'uldir.

3.3. "E-XAT" HEPT foydalanuvchisi:

ERI yopiq kalitini sir saqlash, uni yo'qotish, oshkor qilish, o'zgartirish yoki ruxsatsiz foydalanishni oldini olish uchun barcha choralarni ko'nish;

agar ERI yopiq kalitidan boshqa shaxslar tomonidan foydalanilayotganligi yoki ilgari foydalanilganligi ma'lum bo'lsa, ushbu kalitidan foydalanmaslikka majburdir.

3.4. Ijrochining huquqlari:

3.4.1. Buyurtmachi tomonidan "E-XAT" HEPT foydalanuvchilarini ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza taqdim etilmasa yoki to'liq holda taqdim etilmasa, foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazmaslik, ERI kalitlari va ERI kalit sertifikatlarini bermaslik.

3.4.2. ERI kaliti sertifikatining amal qilish muddati tugagan taqdirda, Buyurtmachiga ERI kaliti sertifikatini to'xtatib turish yoki bekor qilishni rad etish.

3.4.3. ERI yopiq kalitga ishonch yo'qolganligi aniqlangan taqdirda, Buyurtmachini xabardor qilgan va asosli sabablarni ko'rsatgan holda tegishli kalit sertifikatini bekor qilish.

3.5. Ijrochining majburiyatları:

3.5.1. To'lov davri mobaynida "E-XAT" HEPT Foydalanuvchilariga texnik yordam ko'rsatilishini ta'minlash.

3.5.2. "E-XAT" HEPT nosozliklarini va sifatsiz xizmat ko'rsatilishini o'z vaqtida bartaraf etish.

3.5.3. ERI kalitlari sertifikatlarini berish munosabati bilan Ijrochiga ma'lum bo'lgan "E-XAT" HEPT Foydalanuvchilarining shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilmaslik yoki taqdim etmaslik.

3.5.4. Tayyorlanayotgan ERI kaliti sertifikatiga kiritiladigan ma'lumotlardan tashqari, "E-XAT" HEPT Foydalanuvchilarining maxfiy ma'lumotlarini oshkor qilmaslik.

3.5.5. Buyurtmachini Ijrochiga ma'lum bo'lgan va ERI kaliti sertifikatidan kelgusida foydalanish imkoniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan faktlar to'g'risida xabardor qilish.

3.5.6. Buyurtmachining iltimosiga binoan bepul ravishda ERI kalitlari sertifikatlarini to'xtatib turish yoki qayta ishga tushirish, shuningdek bekor qilish.

4. TOMONLAR JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

4.1. O'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

4.2. Ushbu Shartnomaning 3.2 va 3.3-bandlarida nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, buning natijasida yetkazilgan zararni qoplash Buyurtmachi zimmasiga yuklanadi.

4.3. Ijrochi "E-XAT" HEPT Foydalanuvchisining elektron hujjatlarni imzolashda amalga oshirgan hatti-harakatlari uchun javobgar emas.

4.4. Ijrochi Buyurtmachi oldida ERI kaliti sertifikatiga kiritilgan ma'lumotlarning noto'g'riliqi sababli yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi, agar bunday noto'g'ri ma'lumotlar Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan bo'lsa.

4.5. Ijrochi "E-XAT" HEPT Foydalanuvchisi o'zining shaxsiy ERI kalitining saqlanishini ta'minlash talablarini buzgan taqdirda hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

4.6. Ijrochining aybi bilan yopiq kalitga ishonch yo'qolgan taqdirda, Ijrochi Buyurtmachiga yetkazilgan moddiy zarar uchun javobgar bo'ladi, shuningdek, yangi ERI kalitini bepul tayyorlaydi va Buyurtmachiga yangi ERI kaliti sertifikatini beradi.

4.7. Ushbu shartnoma bo'yicha Xizmatlarga haq to'lash muddatlarini buzganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga kechiktirilgan har bir kun uchun qarzdorlik summasining 0,4 foiz miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

4.8. Ushbu shartnoma bo'yicha Ijrochi tomonidan xizmatlar ko'rsatilmagan, kechiktirilgan hollarda Buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umimiy summasi bajarilmagan majburiyatlar baxosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

4.9. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydilar, agar bajarmaslik uchinchi shaxslarning aybi bilan yuz bergan bo'lsa. Bunday holda Tomonlar bunday bajarmaslik sabablarini bartaraf etish uchun maksimal darajada harakatlar qilish majburiyatiga ega.

4.10. Ijrochining javobgarlik zonasini faqat ushbu shartnomada belgilangan majburiyatlar bilan cheklangan.

4.11. Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Tomonlarning ikki tomonlama kelishuviga erishish imkonni bo'lmagan holda yuzaga kelgan nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

5. KONFIDENSIALLIK

5.1. Tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun asoslangan ravishda zarur bo'lgan axborot bilan almashadilar. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga tegishli bo'lgan, bir tomon tarafidan ikkinchi tomonga taqdim etiladigan, unga nisbatan qonunlar bilan cheklangan foydalana olish rejimi ko'zda tutilgan barcha yozma yoki og'zaki axborot yoki axborotni uzatuvchi tomon boshqa tomoniga bunday axborot konfidensial hisoblanishi to'g'risida, ushbu bilan konfidensial axborot ("Konfidensial axborot") hisoblanishi to'g'risida oshkora xabardor qilgan. Konfidensial axborotga shu jumladan shaxsiy va tijorat, kasbga, xizmatga oid, shuningdek qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa turdag'i sirlardan iborat ma'lumotlar, buxgalteriya va moliyaviy ma'lumotlar, axborot va telekommunikatsiya tizimlarini sozlash uchun boshqaruva axboroti kiradi. Konfidensial axborot undan ruxsasiz foydalanishdan, uning butunligi, saqlanishi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlashi kerak.

5.2. Ushbu shartnomaga muvofiq Konfidensial axborotni taqdim etuvchi tomon ("Uzatuvchi tomon")ning yozma roziligini olmasdan ushbu Konfidensial axborotni oluvchi Tomon ("Oluvchi tomon") Konfidensial axborotning qandaydir qismidan ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan maqsadlar uchun foydalanyaydi (i), Konfidensial axborotni yoki uning qismini asoslangan ravishda ushbu shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda Konfidensial axborotdan foydalana oladigan va ular ushbu shartnoma bo'yicha tomon bo'lgan holdagi kabi Konfidensial axborotning saqlanishini ta'minlashga rozi bo'ladigan Oluvchi tomon xodimlari va maslahatchilari (shuningdek subpudratchilar)ga tegishli bo'lmagan qandaydir shaxslar yoki tashkilotlarga taqdim etmaydi (ii), Konfidensial axborotdan noqonuniy foydalanishga yo'l qo'yaydilar (iii).

5.3. Oluvchi tomon Konfidensial axborotni yoki uning qismini oshkor qilanligi uchun javobgar bo‘lmaydi, agar u bundan Konfidensial axborot uni olish vaqtida hammaga tegishli hisoblanganligi yoki keyinchalik Oluvchi tomonning aybisiz bunday bo‘lganligini (i); bu axborot olingunga qadar Oluvchi tomonga ma’lum bo‘lgan yoki uning ixtiyorida bo‘lganligini (ii); Konfidensial axborotning saqlanishini ta’minalash majburiyatining buzilishi bo‘limganda (iii) Oluvchi tomonga Uzatuvchi tomon bo‘lib hisoblanmaydigan manbadan ma’lum bo‘lganligini isbotlay olsa.

5.4. Agar Oluvchi tomon qonunga ko‘ra qonun hujatlariga muvofiq Konfidensial axborot oshkor qilinishini talab qilish vakolatiga ega davlat hokimiyati organlariga qandaydir Konfidensial axborotni oshkor qilishga majbur bo‘lsa, u holda bunday Tomon bu fakt to‘g‘risida zudlik bilan Uzatuvchi tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majbur. Shu bilan birga Uzatuvchi tomonni lozim darajada xabardor qilingan holda, ushbu bandga muvofiq Konfidensial axborotni oshkor qilayotgan Uzatuvchi tomon Konfidensial axborotni oshkor qilmaslik to‘g‘risidagi o‘z majburiyatini buzgan deb hisoblanmaydi. Bunday oshkor qilingan holda Oluvchi tomon Konfidensial axborotning muhofaza qilinishini ta’minalash uchun unga bog‘liq bo‘lgan hamma xatti-harakatlarni bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

5.5. Konfidensial axborot Uzatuvchi tomonning mulki hisoblanadi va bu axborot ushbu shartnomada ko‘zda tutilmagan maqsadlar uchun kerak bo‘lmay qolgandan keyin Uzatuvchi tomonning talabi bo‘yicha zudlik bilan bunday tomonqa qaytarilishi kerak yoki Oluvchi tomon yoki ushbu bo‘lim qoidalariga muvofiq bunday Konfidensial axborot Oluvchi tomon tarafidan taqdim etilgan boshqa qandaydir tomon tarafidan ko‘chirilgan barcha nusxalari bilan birga yo‘q qilinadi.

6. KORRUPSIYAGA QARSHI SHART

6.1. Tomonlar:

- Tomonlar, ularning affilangan (o‘zaro bog‘langan) shaxslari va xodimlari, ushbu shartnomada bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishlari davomida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo‘lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va’da qilish, ta’magirlilik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo‘lish xattiharakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.

- Tomonlar, ularning affilangan (o‘zaro bog‘langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag‘batlantirishdan, shu jumladan pul summalarini, sovg‘alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg‘araz ko‘rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vekil tomonidan uni rag‘batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta’minalashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma’lum qiladilar.

6.2. Tomonda ushbu shartnomaning 6.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to‘g‘risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo‘lmaydigan dalillari mavjud bo‘lgan holda esa – amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

7. BARTARAF ETIB BO‘LMAYDIGAN KUCH HOLATLARI (FORS-MAJOR)

7.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni qisman yoki to‘liq bajarmaganligi uchun, agar bunday holat ushbu shartnoma tuzilgandan keyin va Tomonlar oqilonqa chora-tadbirlar bilan oldini ololmagan favqulodda tusdagagi voqealar oqibatida paydo bo‘lgan bartaraf etib bo‘lmaydigan kuchlar oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod etiladi. Bartaraf etib bo‘lmaydigan kuch holatlari deganda: suv toshqini, yong‘in, zilzila, davlat organlarining harakatlari yoki harakatsizligi (shu jumladan valyuta operatsiyalarini cheklashlar), epidemiya/pandemiya boshqa tabiat hodisalari, urush yoki harbiy harakatlar va sh.k. tushuniladi.

7.2. Shartnomaning 7.1-bandida ko‘rsatilgan holatlar yuzaga kelganda, har bir Tomon 5 (besh) kalendar kuni ichida bu haqda boshqa Tomonga xabar qilishi kerak. Bartaraf etib bo‘lmaydigan kuch holatlari to‘g‘risida xabar qilmaslik yoki o‘z vaqtida xabar qilmaslik tegishli Tomonni majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslikni asoslash uchun ularga havola qilishdan mahrum qiladi.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH SHARTLARI

8.1. Ushbu Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g‘aznachiligidagi ro‘yxatga olingan paytdan boshlab kuchga kiradi va **2023 yilning 31 dekabrigacha** amal qiladi.

8.2. Tomonlar ushbu shartnomani Tomonlarning kelishuviga ko‘ra shartnomada va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan hollarda muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega. Shartnomaning bekor qilinishini boshlab beruvchi Tomon taxmin qilingan bekor qilish sanasidan 15 (o‘n besh) kalendar kun oldin o‘zining qarori to‘g‘risida ikkinchi Tomonni xabardor qiladi. Tomonlarning barcha o‘zaro hisob-kitoblari amalga oshirilganidan keyin shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

8.3. Agar to‘lov amalga oshirilgan texnik qo‘llab-quvvatlash muddati tugaganidan keyin bir oy o‘tgach, Buyurtmachi ushbu Shartnoma bo‘yicha keyingi davr uchun xizmatdan foydalanish va to‘lash istagini bildirmasa, Shartnoma avtomatik ravishda bir tomonlama tartibda bekor qilinadi.

9.YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Ushbu Shartnomaning barcha tijorat shartlari uchinchi shaxslar uchun maxfiy ma’lumot hisoblanadi.

9.2. Ushbu shartnoma va unga bog‘liq holda Tomonlar tarafidan yaratilgan barcha hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi Qonun talablariga muvofiq yuridik jihatdan ahamiyatlari hisoblanadi va elektron shaklda bajarilganligiga asoslanib nizolashilishi mumkin emas.

9.2. O‘zgartirishlar va qo‘srimchalar qo‘srimcha kelishuv tuzish yo‘li orqali shartnomaga kiritiladi. Ushbu shartnomaning barcha ilovalari va qo‘srimcha kelishuvlari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

9.3. Shartnoma shartlarida ko‘zda tutilmagan hollarda Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.

10. YURIDIK MANZILLAR, BANK REKVIZITLARI VA TOMONLAR IMZOLARI

IJROCHI

«UNICON-SOFT» MCHJ

Manzil: 100084, Toshkent sh., Mingbuloq ko‘ch., 38

Tel: (99871) 200-46-46

H/r: 2020 8000 8008 0935 4003

«Kapitalbank» ATB, Mirzo Ulug‘bek filiali

MFO: 01018

STIR: 305 109 680

IFUT: 62 010

QQS ro‘yx. kodi: 3260 3001 3988

BUYURTMACHI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA
MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA
BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

Manzil: MIRZO ULUG‘BEK KO‘CHASI 77-
UY

Tel: 998939916053

H/r: 23402000300100001010

Sh/h: 100010860184017094100250001

MFO: 00014

STIR: 201878451

IFUT: 85420

QQS ro‘yx. kodi: 318010182406

**XABIBULLAYEV SHERZOD
XAYRULLA O‘G‘LI**

**YUNUSOV XUDAYNAZAR
BEKNAZAROVICH**

	<p>SHARTNOMA ELEKTRON RAQAMLI IMZO BILAN IMZOLANGAN</p> <p>elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun mobil qurilma orqali QR kodni skanerlang.</p>
Shartnoma raqami va sanasi	8747-2023/EXAT - 24 Yanvar 2023 y.
Shartnoma kodi	#SG8856485648
Operator STIRi	305109680

Abonent STIRi	201878451
---------------	------------------

To'lanishi lozim bo'lgan QQS summalarini kamaytirish tarzidagi huquqni suiiste'mol qilgan korxonalar ro'yxati shakllantirildi

[Excel formatida yuklash](#) [Pdf formatida yuklash](#)

Kontragentingizni tekshiring!

305109680		1878	Izlash
-----------	--	-------------	------------------------

Nº	Viloyat	Korxona nomi	STIR	Jami soliq qarzi (so'm)
Ro'yxatda mavjud emas				

"UNICON-SOFT" MCHJ

STIR:	305109680
Holati:	Фаолият кўрсатадиган ва солиқ мажбуриятiga эга
Manzil :	Qorasuv-3, Mingbuloq ko'chasi 38-uy
Ro'yxat sanasi :	26.10.2017
Ro'yxat raqami :	481676
SOATO:	Мирео-Улугбекский район
OPF:	-
OKED:	Kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat
SOOGU:	Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kirmagan tadbirkorlik sub'yektlari
Soliq uzilishi koeffitsienti (TaxGap):	0
QQSning ro'yxatga olish guvoxnomasi holati:	Faol
Naqdlashtiruvchi korxona ro'yxatida mavjudligi:	Yo`q

- [Hukumat dasturlari](#)
- [Ommaviy tadbirlar](#)
- [Soliq xavflarining tahlili](#)
- [Soliq xavflarini tahlili](#)
- [Lozim darajadagi ehtiyojkorlik](#)
- [Biznes hamkorning soliq qarzini tekshirish](#)
- [Idoralararo hamkorlik](#)
- [Xalqaro hamkorlik](#)
- [Soliq nizolari](#)
- [Soliq to'lovchilarini hisobi](#)
- [Soliq tekshiruvlari](#)
- [Huquqbazarliklar profilaktikasi](#)
- [Soliq qarzlarini undirish](#)
- [Tashqi savdo operatsiyalari](#)
- [Korrupsiyaga qarshi kureshish](#)
- [Yirik soliq to'lovchilar](#)
- [DSQ huzuridagi Jamoatchilik kengashi](#)